



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 83-86 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

ZAMONAVIY KASBIY TA'LIM – MEHNAT BOZORI TALABLARIGA JAVOB BERADIGAN RAQOBATBARDOSH MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH GARVIDIR



Tojiev Sirojiddin Sayriddinovich

Professional ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy kasbiy ta'limning mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim muhiti va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Muallif kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, dual ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligi asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalarini yoritgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy kasbiy ta'lim, raqobatbardosh mutaxassis, mehnat bozori, innovatsion yondashuv, dual ta'lim, kompetensiya.

Abstract: The article analyzes the role of modern vocational education in training competitive specialists that meet the needs of the labor market. It explores innovative approaches, digital learning environments, and practical training methods. The paper emphasizes the importance of dual education and collaboration with industry in preparing highly qualified and competitive professionals.

Key words: modern vocational education, competitive specialist, labor market, innovation, dual training, competence.

Аннотация: В статье анализируются роль и значение современного профессионального образования в подготовке специалистов, отвечающих требованиям рынка труда. Рассматриваются подходы, направленные на развитие инновационных технологий, цифровых сред обучения и практических навыков в образовательном процессе. Автор освещает актуальные вопросы модернизации системы профессионального образования, подготовки конкурентоспособных кадров на основе дуального образования и производственной кооперации.

Ключевые слова: Современное профессиональное образование, конкурентоспособный специалист, рынок труда, инновационный подход, дуальное образование, компетенции.

Kirish

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori tez sur'atlar bilan o'zgarmoqda. Yangi kasblar paydo bo'lmoqda, mavjudlari esa yangi texnologiyalar ta'sirida qayta shakllanmoqda. Bu holat ta'lim tizimidan, ayniqsa, kasbiy ta'limdan,

zamon talabiga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashni talab etmoqda.

Ayni vaqtda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida amaliyotga tayyor, zamonaviy texnologiyalarni bilishga qodir mutaxassislarga talab katta. Bu esa kasbiy ta'lim mazmunini bozor ehtiyojlariga muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024 yil 16 oktabrda imzolangan "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-158-son Farmon kasbiy ta'lim sohasidagi tub islohatlarning uzviy davomi bo'lib xizmat qilmoqda.

Farmon bilan kasbiy ta'lim tashkilotlari turlari maqbullashtirildi hamda kasbiy ta'limning barcha darajalari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan yagona ko'p tarmoqli o'quv muassasalari tizimi joriy qilindi.

Kasbiy ta'lim tizimini mehnat bozori bilan integratsiya qilish o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlashning asosiy sharti hisoblanadi. Hozirgi kunda ayrim sohalarida kadrlar tayyorlashdagi mazmun, o'quv dasturlari va ishlab chiqarish ehtiyojlari o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish dolzarb masala bo'lib turibdi.

Shu bois ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida doimiy hamkorlik tizimini yo'lga qo'yish, o'quv dasturlarini soha talablariga muvofiq yangilab borish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoev joriy yilning 9 sentabr kuni "Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi"da ham kasbiy ta'lim tizimiga alohida to'xtalib o'tdi.

Jumladan, Davlatimiz rahbari yoshlarimizni kasb-hunarli qilib, doimiy daromad topishi uchun sharoit yaratish eng dolzarb masala ekanini ta'kidladi.

Shuningdek, yurtimizda 450 ming o'quvchini qabul qila oladigan 598 ta texnikum borligi, lekin ularga yoshlarning qiziqishi, kasb topish ko'rsatkichi yuqori emasligi tanqid qilinib, Prezident va ixtisoslashgan maktablar tajribasi asosida barcha texnikumlarga xalqaro standart bo'yicha zamonaviy kasbga o'qitish muhitini olib kirish zarurligi ta'kidlandi.

Bu ishlarni yagona siyosat asosida olib borish uchun Kasbiy ta'lim agentligi tashkil qilinishi zarurligi belgilab berildi. Endi investorlar buyurtmasi bilan texnikumlarda kadrlar maqsadli tayyorlanishi, texnikum bilan dual ta'limni yo'lga qo'ygan korxonalarga imtiyozli kreditlar ajratilishi ta'kidlandi.

Shu bilan birga, Davlatimiz rahbari tomonidan "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan o'tkazilgan tantanali tadbirda so'zlagan nutqida ham kasbiy ta'lim

masalasiga alohida to'xtalib, soha uchun 2026 yil – yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o'rgatish yili bo'lishi ta'kidladi.

Kelasi yili sanoatda qariyb 45 milliard dollarlik 456 ta yirik loyiha boshlanishi, endi texnikumlarda “investor – tarmoq – texnikum” zanjiri asosida har bir loyiha bo'yicha dual ta'lim yo'lga qo'yilishi aytib o'tildi.

Umuman, dual ta'lim bilan qamrov 5 barobar oshirilishi, hamkor korxonalarga 5 milliard so'mgacha imtiyozli kredit ajratilishi, dual ta'lim orqali ishlayotgan o'quvchilar bo'yicha yagona ijtimoiy to'lov ikki barobar qisqartirilishi ta'kidlandi.

Bugungi kunda respublikamizdagi 600 ga yaqin kasbiy ta'lim muassasalarida 350 mingdan ortiq o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlanmoqda.

Shu bilan birgalikda, O'zbekistonda Germaniya tajribasi asosida dual ta'lim shaklini tizimli rivojlantirish masalasiga ham alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Birgina misol, dual ta'lim shakli joriy qilingan dastlabki yillarda bor-yo'g'i 63 ta ta'lim muassasasida 2 ming nafardan ortiq o'quvchilar ta'lim olib, ularga korxona (tashkilot)larning 1537 nafar malakali xodimlari “ustoz” sifatida biriktirilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich, 2025 yilning so'ngi choragiga kelib keskich oshganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, 481 ta kasbiy ta'lim tashkilotlarida 50 mingdan ortiq o'quvchilar 134 ta kasb va mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olmoqda (1-rasm).

Yuqoridagi raqamlardan ham ko'rinib turibdiki, dual ta'lim shakliga bo'lgan talab yil sayin ortiq bormoqda.

Dual ta'lim shakli bugungi kunda shiddat bilan o'zgarayotgan bozor munosabatlari sharoitida ish beruvchilarning talabini to'liq oqlamoqda.

Bu ta'lim shaklida ish beruvchilarga eng yaxshi mutaxassislarni tanlab olish va ishga qabul qilish imkoniyatini yaratib bermoqda.

Zamonaviy kasbiy ta'lim sohasining yana bir muhim yo'nalishi bu – bitiruvchilarning amaliyot o'tashi va ularni ishga joylashtirish jarayonini raqamlashtirishdan iborat.



1-rasm. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Mazkur jarayonlarni o'z vaqtida amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 30 sentabrdagi "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining amaliyot o'tashi va ularni ishga joylashtirish tizimini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 615-son qarori dasturi amal bo'lib xizmat qiladi.

Xulosalar

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kasbiy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi – bu mehnat bozori ehtiyojlariga mos raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashning asosiy omilidir. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy hamkorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. O'zbekistonda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar kasbiy ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024 yil 16 oktabrdagi PF-158-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2025 yilning 9 sentabr kuni "Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi" va "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan o'tkazilgan tantanali tadbirda so'zlagan nutqlari.
4. S.Tojiev Professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim shaklini takomillashtirish orqali ish beruvchilarning talabi asosida o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlashni kengaytirish yo'nalishlari // O'zbekistonda professional ta'lim jurnali. – 2023. – №4.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Professional ta'lim muassasalariga yil davomida o'quvchilarni dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2023 yil 7 dekabrdagi 647-son qarori.

Internet manbalari:

1. <https://lex.uz>
2. <https://edu.uz>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

